

3. Салиева З.Т. Педагогика олий таълим муассасалари талабларини маънавий-маданиятини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. Пед.фан.док. (Dsc)дисс. –Т.: 2017.-337б.

4. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.

MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA TINGLOVCHILARNI MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING SAMARADOLIGI

Karimjonov O.A., Ichki ishlar vazirligi akademiyasi “Xizmat-psixologiyasi va kasbiy madaniyati” kafedrası katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD), leytenant

Annotatsiya. Malaka oshirish kurslarida tinglovchilarni malakasini oshirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, bunda axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan keng foydalanish, mazkur jarayonga innovatsion shakl, vosita va usullarni joriy etish, buning uchun maxsus tayyorgarligi mavjud bo'lgan yuqori malakali kadrlar konsaltingini rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot, malaka, texnologiya, innovatsiya, qayta tayyorlash, rivojlantirish, metod, vosita.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida” 797-son qarori qabul qilindi. Qarorda ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish, chet el tajribasini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini yangi mazmunda tashkil qilish uchun yangi o'quv rejalari va dasturlarini qaytadan ishlab chiqish, ularda an'anaviy maktab ta'limi uslublaridan voz kechib, amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha soatlar ko'paytirilishini ta'minlash belgilab qo'yildi. Mazkur yo'nalishda qabul qilingan hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha ta'lim tizimida rejalashtirilgan ishlar va tadbirlar majmui innovatsion g'oyalarning nechog'li mamlakatimiz hayotiga keng kirib borayotganligidan dalolat beradi.

Tinglovchilarni malakasini oshirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, bunda axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan keng foydalanish, mazkur jarayonga innovatsion shakl, vosita va usullarni joriy etish, buning uchun maxsus tayyorgarligi mavjud bo'lgan yuqori malakali kadrlar konsaltingini rivojlantirish muhimdir. Umuman olganda, tinglovchilarning malakasini oshirish

muammosi aksariyat mamlakatlar uchun dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammoda o'qituvchining kasbiy talab va ehtiyojlari bir tomondan, jamiyat rivojlanishining talablari ikkinchi tomondan gavdalanadi.

Tinglovchilarning malakasini oshirish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha kompetentligini oshirish, sub'ektda shakllanishi joiz bo'lgan kuzatish, taqqoslash, tahlil, analiz, sintez, tajribada sinab ko'rish, umumlashtirish, xulosalash ko'nikmalariga ega bo'lish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish kurslarida tinglovchilarni kasbiy rivojlanishini tavsiflovchi mezonlar tinglovchilarning dars mashg'ulotlarini axborot-kommunikatsiya, multimediali vositalar asosida tashkil qilishi, axborot-kommunikatsiya bo'yicha kompetentligining muntazam rivojlantirishida o'z aksini topadi. Bundan tashqari, malaka oshirish tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarining kasbiy faoliyat mezonlari ishlab chiqildi.

Kasbiy faoliyat mezonlari quyidagilardan iborat:

a) malaka oshirish kurslarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning malaka oshirish kursidan keyingi davrda amalga oshiradigan ishlari istiqbol rejasining bajarilish sifati;

b) malaka oshirish kursidan so'ng pedagog malaka toifasining o'sishi;

b) o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsion va innovatsion texnologiyalarni joriy etishi;

r) mahorat darslari va seminar-treninglarni o'tkazishi;

d) pedagogning turli ta'lim loyihalari va tanlovlardagi ishtiroki.

Malaka oshirishdan keyingi faoliyat samaradorligi monitoringi mazkur faoliyatni takomillashtirish yuzasidan ta'lim muassasasi rahbariyatining navbatdagi malaka oshirish kursida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlar yuzasidan takliflar bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimida malaka oshirish o'quv fanlari turkumiga kirgan o'quv kurslarining maqsadlari – talabalarni ma'naviy madaniyatli, vatanparvarlik his-tuyg'ulari shakllangan fuqarolar qilib tarbiyalashdan iborat. Chunki, ushbu o'quv kurslar mazmunida talabalarni harbiy tariximiz haqidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish va shu jarayonda har tomonlama shakllangan shaxsni hamda komil insonni voyaga etkazish vazifasi amalga oshiriladi. Talabalarining irodasi, ongi, shuuriga ta'sir etib, ularni ma'naviy shakllantirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ushbu o'quv kurslarida bilim berish, tasvir – axborot, estetik (ijodiy fikrlash), ruhiyat, ijtimoiy, amaliy (semiotik), huzur –halovat bag'ishlash (idionistik), o'zaro aloqa (kommunikatsiya) kabi o'ziga xos jihatlari bilan bevosita shaxsning, xususan, talabalarining ma'naviy madaniyatli bo'lishiga sezilarli ta'sir etadi. O'quv kurslari mavzulari xalq ommasining hayoti, kurashi, g'oyalari, hissiyoti va intilishlari, ruhiyati va manfaatlarini ifoda etib, talabalarni ilg'or va ishonchli g'oyalarga ilhomlantiradi.

Xulosa. Tinglovchilarni malakasini oshirishda ularning axborot-kommunikatsiya bo'yicha kompetentligini rivojlantirish uchun ta'lim jarayoniga axborot-ta'limiy resurslardan muntazam foydalanish malakalarini rivojlantirish, dars mashg'ulotlarini o'quv-metodik jihatdan ta'minlash, Axborot resurs markazlari fondidan muntazam foydalanish, ta'lim muassasasidagi axborot xizmatidan foydalanish malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. –Toshkent, 2020.

2. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 797-son Qarori. 2019 yil 23 sentabr.

3. Мирсолиева М. «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш / педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган докторлик диссертация.-Тошкент,2016. – 210 б.

4. Редко Л.Л. Управление качеством непрерывного уровневого образования в региональном учебно-научно-педагогическом комплексе. – М.: Илекса, 2001. – 320 с.

PEDAGOGIK MULOQOT ASOSIDA TALABALARNI MUOMALA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Karimova N.X., O'zDJTU o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ya'ni talabalarni pedagogik muloqoti asosida muomala madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik muloqot, muomala madaniyati, ta'lim-tarbiya, pedagogik talab, pedagogik faoliyat

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti- harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatgi-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar Hozirgi kunda Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishida, har bir fuqaroning bilim olishida, ijodiy qobiliyatini shakllantirishda, intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, o'qituvchi kasbiga nisbatan talab va javobgarlik ham kuchaydi, ularning jamiyat oldidagi vazifalari yanada oshdi. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish kabi buyuk vazifalarga javobgarlik o'qituvchilar zimmasiga yuklatildi. Bu vazifalarning bajarilishiga, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lgan o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muomalaga kirishish madaniyati orqali erishiladi. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchining shaxsiy va ijtimoiy harakati pedagogik muloqot madaniyati zaminida shakllanib, takomillashadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti- harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatgi-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi sub'ekti bilan, o'quvchi ob'ekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi. Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati,